

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

“QURILISH” *fakulteti*

«QURILISH-ARXITEKTURA» *kafedrası*

«Tasdiqlayman»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

_____ dots.B.Ergashev

«____» _____ 2018 y.

“ARXITEKTURAVIY LOYIHALASH” *fanidan*

(4-semestr uchun)

USLUBIY KO'RSATMA

5341000 - Qishloq hududlarini arxitektura
loyihaviy tashkil etish

Namangan 2018

Tuzuvchi: “Qurilish-arxitektura” kafedrası o’qituvchisi
Hamidov O.U.

Mazkur uslubiy ko’rsatma “5341000 - Qishloq hududlarini arxitekturaviy loyihalash va tashkil yetish” ta’lim yo’nalishi talabalariga Arxitekturaviy loyihalash fanidan amaliy loyiha ishlarini bajarish uchun mo’ljallangan.

Taqrizchi: TAQI “Arxitektura” fakulteti, arxitektura doktori prof.
Axmedov M.Q.

Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq nashr etishga tavsiya etilgan.

Bayonnoma №__, _____, 201__ yil.

Namangan muhandislik-qurilish instituti “Qurilish-arxitektura” kafedrasining 201__ yil, «__» _____dagi «__» sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy kengashida ko’rib chiqishga tavsiya etilgan.

“Qurilish-arxitektura” kafedrası mudiri _____ **A.Xamrakulov**

“KO’RGAZMA ZALLARI”

mavzusidagi amali loyihasiga o’quv topshirig’i va metodik ko’rsatmalar.

1.Ko’rgazma pavilonlari turlari

Loyiha qilinadigan ko’rgazma paviloni jamoat binolarining madaniy muassasalar binolari tarkibiga kirib, katta shahar va viloyatlarda qurishga mo’ljallangan.

Shaharsozlik nuqtai nazardan ko’rgazma pavilonlari qo’yidagi uch belgilar: ekspozitsiyalarni ma’nosi, ta’sir qilish zonasi va ko’rsatish vaqtiga asosan klassifikatsiyalanadi.

Ko’rgazma pavilonlari funksiyasiga ko’ra quyidagi guruhlariga bo’linadi. Xalq xo’jaligi yutuqlari ko’rgazmasi, texnik ijodiyot, badiiy ijodiyot, maxsus gullar, flateliya, hayvonot va h.k. qatnashuvchilarning kontingentiga ko’ra ular xalqaro, Respublika, viloyat, shahar va noxiya ko’rgazmalari bo’lishi mumkin.

Har bir ko’rgazma pavilonlarining o’ziga xos arxitektura – fazoviy muhit bo’lishi kerak bo’ladi va bu muhitga uchta vazifa qo’yiladi: erishilgan yutuqni ko’rsatish, informatsiyalar bilan almashish va tajriba almashish.

Ko’rgazma pavion binosini IV – iqlim sharoitini hisobga olib loyiha qilinishi kerak bo’ladi. Bunda 7 – 9 darajali zilzilasilimonlikni, issiq sharoitini va shunga ko’ra obodonchilikka, suv havzalar va favvoralariga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo’ladi.

2.Ko’rgazma pavilonlarini joylashtirish

Ko’rgazma pavilonlarning funksional vazifasiga ko’ra:

1. Xalq xo’jaligi yutuqlari ko’rgazmasi pavilonlarini biri sifatida alohida joylashishi mumkin.
2. Maxsus ko’rgazma zali sifatida alohida yer uchastkasida joylashishi mumkin.
3. Jamoat binolari bilan birgalikda qo’shib madaniy markazlar shaklida joylashtirish mumkin.

Har uchchala hollarda ko’rgazma pavilonlarga qulay kirish yo’llari , transport uchun turar – joy bo’lishi shart. Yengil avtomashinalar uchun 6x4, katta o’lchamli og’ir avtomashinalar uchun 10x5m ochiq turadigan joylar qabul qilinadi.

3.Ko’rgazma pavilonlarini loyihalash asoslari

Ko’rgazma pavilonlari strukturasini asosan uchta guruh xonalar tashkil qiladi. Bular: ko’rgazmaga keluvchilarga xizmat ko’rsatish xonalari, ekspozitsiyalar zonasi, ma’muriy va xo’jalik xonalari.

Kirish qismi (vestibul guruhini) garderob, ekskursiya byurosi, estalik mollari sotish do’konchasi, informatsiya markazi va hojatxona tashkil qiladi. Kirish qismi yakuniga dam olish joyi va bufet joylashtiriladi. Kinoteatr va kino ko’rsatish xonalariga kirish vestibul orqali bog’lanadi. Ma’muriy xonalar (direktor, plakat,

ekskursovod xonasi) ixcham loyihalash va albatta tabiiy yoritilishi kerak. Xizmat ko'rsatish zonasi ustaxonasi, fotolaboratoriya, texnik xonalari (kondisioner uskunalari joylashadigan, elektrik tumbasi) va texnik xizmat ko'rsatish xodimlari xonalarini o'z ichiga oladi. Ekspонатlarni qabul qilish uchun alohida maxsus eshik bilan ta'minlanib va u ko'rgazma zaliga bog'langan bo'lishi kerak. Ko'rgazma paviloni muhiti yaxlit yoki bo'lingan zallardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Ularning ekspozision maydonchalari har – xil balandlikda joylashishi mumkin. Universal ko'rgazma zallari uchun integral sistemadagi (tabiiy va sun'iy) yoritgichlar qo'llaniladi.

Pavilonning balandligi aniq belgilanmagan, lekin ekspozisiyaning balandligiga qarab 4 – 5 metrdan 9 – 12 metr yoki undan katta bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatish xonalariga balandligi 3,3m bo'lgan 6x6m loyiha modulini qo'llash mumkin. Kirish qismini balandligi 4,2m.

Ko'rgazma pavilonining konstruktiv yechimi yig'ma qurilish elementlaridan va fazoviy qurilmalardan qay darajada foydalanganligiga bog'liq. Ustunlar oralig'i 6x6m, 9x9m, 12x12m, 18x18m va 24x24m bo'lishi mumkin. Ko'rgazma zali keng muhitli bo'lgan hollarda quyidagi fazoviy qurilmalarni ishlatish mumkin: kesma – sterjenli, svod – obolochkali, (qirrali, setkali), osma yopilmalar (giperboloit - paraboloid).

4. Ko'rgazma pavilonlarining kompozision strukturasi

Ko'rgazma pavilonlari binolarini kompozision yechimi markazlashgan va yoyli, ya'ni blokli bo'ladi. Markazlashgan kompozision yechim tarxining ixcham bo'lishi bilan ajralib turadi va shu bilan birga funksional jihatdan muhitdan universal foydalanishga imkoniyat beradi. Markazlashgan pavilonlarning yaxlit ichki muhitga ega bo'lgan bir qavatli, markazlashgan yadro – muhit va uni atroflarni o'rab turadigan galereya va ekspozision bosqichlarini erkin joylashtiradigan xillari bo'lishi mumkin.

Yoyliq kompozisiyaga pavilonlarning blokli usulida alohida joylashuvi kiradi. Funksional bloklarning bo'lishiga asosiy sabab, ko'rgazma bo'limlarini har hil tematik tarzda tashkil etish.

Pavilonlarning ajralib turishi darajasiga qarab ular 2 ta usulga bo'linadi: bloklarni ihcham joylashtirish va erkin joylashtirish.

5. Ko'rgazma pavilonining xonalar yuzasi va tartibi

A. Ko'rgazmaga keluvchilarga xizmat ko'rsatish xonalari

№	Xonalar nomi	Xonalar yuzasi	Eslatma
1	Ekspozitsiya zali	800 M ²	Zallarning o'lchamlari ekspozitsiyalarning turi va hajmiga qarab olinadi
2	Kirish qismi: garderoab va estalik mollarini sotish do'konchasini bilan	60 M ²	
3	Bufet qo'shimcha xonasi bilan	24 M ²	
4	Kinoteatr xonasi	40 M ²	
5	Kino ko'rsatish va lentani qayta o'rash xonasi	12 M ²	
6	Xojatxona	12 M ²	
7	Informasiya xonasi	15 M ²	
		Jami maydon 963 M ²	

B. Ma'muriy xo'jalik va texnik xizmat ko'rsatish xonalari.

№	Xonalar nomi	Xonalar yuzasi
1	Direktor xonasi	15 M ²
2	Ekskursiya byurosi	12 M ²
3	Plakat-rassom xonasi	12 M ²
4	Xodimlar xonasi	20 M ²
5	Ustaxona	12 M ²
6	Labarotoriya (foto)	12 M ²
7	Xodimlar uchun garderoab dush va xojatxona	12 M ²
8	Xo'jalik mollarini saqlash xonasi	12 M ²
9	Eksponatlarning saqlash xonasi	80 M ²

10	Texnik xonalar (kondisionerlik uskunalari vaelektor dastgohi o'rnatish joyi)	60 M ²
	Jami maydon:	262 M²
	Ko'rgazma zali bo'yicha Jami maydon	1225 M²

6. Loyiha tartibi

1.	Bosh tarx	1:500
2.	Qavatlar tarxi	1:100 yoki 1:200
3.	Tarzlari	1:50 yoki 1:100
4.	Qirgim.	1:100
5.	Maket yoki perspektiva	

“KAM QAVATLI TURAR JOY UYI” **mavzusidagi amali loyihasiga o’quv topshirig’i va metodik ko’rsatmalar.**

1.Umumiy tushunchalar.

O’zbekiston Respublikasi shaharlari va aholi yashaydigan punktlaridagi real sharoitlar uchun 1 – 2 qavatli xususiy yashash uylari tipidagi kottedjlarni loyihalashda zarur bo’ladigan amaliy saviyalarning talabalar tomonidan egallanishi loyihaning bosh masalasi deb hisoblanadi.

Rejali iqtisoddan bozor iqtisodiga asta – sekin o’tish moddiy boyliklarni, zahiralar (resurslar)ni va vositalarni qayta taqsimlashga olib bormoqda va ijtimoiy arenada xususiy tadbirkorlar – mustaqil ravishda tasodif va xavf – xatarga qo’l uradigan, ishlab chiqarishning yangi turlarini tashkil etadigan – yaratadigan biznesmenlar (tadbirkorlar), o’rtada turuvchi savdo firmalari, kam quvvatli va aholiga keng assortimentda xizmat qo’rsatadigan o’quv va madaniyat markazlarini vujudga keltirmoqda. Shu bilan bir qatorda jamiyatda eng takomillashgan texnologiyalar asosida ijtimoiy munosabatlarning yangi turlari (ko’rinishlari)ni yaratmoqda.

O’rta sinfli deb nom olgan odamlar va ularning oilalari paydo bo’layapti, ular o’zlarining ijodiy – ishlab chiqarish va tijorat sohasidagi faoliyati evaziga yuqori daromadga erishmoqdalar, ular turmushning yangi mentalitetini yaratmoqdalar, bu mentalitet tarkibiga narsa va buyumlar olamining butun – bir kompleksi, birinchi navbatda sof oilali yashash uyi sifatida va “yashash uyi + xususiy ishlab chiqarish” organik kompleksi sifatidagi xususiy uy – joylarning yangi tiplari kiradi.

2.Bosh reja (Bosh tarx).

Talaba ilmiy rahbari bilan birga Toshkent shahridagi real yer uchastkasini (yoki O’zbekiston Respublikasidagi istalgan shaharda) M 1:500 masshtabdagi topotasvirli maydoni 0,6ga dan ortiq bo’lgan yer uchastkasini tanlaydi (variantlar: 20x30m, 15x40m, 12x50m, qisqa tomoni ko’cha tarafga tegishli). Uchastka qat’iy funksional va texnologik jihatdan ishga yaroqli tashqari qism va oilaga moslangan ichkari qismga bo’lingan bo’lish lozim. Umumiy uchastkaning har bir qismi mashina va odamlarning kirishini, yopiq garajning bo’lishini va mashina uchun ochiq joy qoldirilishini, suv bilan ta’minlanganli, ko’kalamzorlashtirilganligini hisobga olgan holda qulay rejalangan (tarxlangan) bo’lmog’i lozim. Mumkin qadar ochiq tipdagi 3x6m o’lchamli suv havzasi (basseyn)ni, kichik arxitekturaviy shakllar: uzun kursi (skameyka)lar, supa, pergola, gulzor va shunga o’xshashlarni rejaga kiritish taqozo etiladi. Uchastka bo’yicha texnik – iqtisodiy ko’rsatkichlar hisoblanadi va standart talablar bo’yicha uchastka hududi muvozanati (balansi) aniqlanadi (ya’ni qurilish maydoni, qattiq qoplamali yo’laklar va maydonchalar, yashil maydon yuzalari m² (ga) va ular yuzalarining umumiy maydon yuzasiga nisbatan foizi hisoblanadi). Yirik shaharlarda yer uchastkasining tanqisligini hisobga olgan holda ikki – besh uchastkani blokirovka qilish (umumlashtirish) tavsiya etiladi.

3.Yashash uyi – xonadon.

Uylar faqat oilaviy yashash uchun maydoni 12m^2 / kishi bo'lgan me'yorda qabul qilinadi. Uy – kvartiralarining turlari yashash xonalari soni va yashash hamda yordamchi xonalarining umumiy qulayligi bo'yicha 1 jadval bo'yicha qabul qilinadi.

Uydagi har bir xonaning shamollatilishi havo oqimining o'tishi orqali ta'minlanmog'i lozim: qarama – qarshi fasadlardagi deraza oraliqlari fortochkalari orqali gorizontal yo'nalishda havoning "oqib" o'tishi yoki agrasion shaxtalar yordamida vertikal shamollatish. Bunda yig'ma shaxta ko'ndalang kesimining umumiy yuzasi shamollatiladigan xona umumiy yuzasining $1/20$ qismini tashkil etishi hisoblab topilgan. Vertikal shamollatishda yig'ma shaxtaga ulanish bitta qavatdan keyin tirsaksimon kanal bilan amalga oshiriladi. Bir tomonli oriyehtasiyaga ega bo'lgan uylar uchun vertikal shamollatish majburiydir.

Qulay uylarning xonalari: mehmonxona, umumiy xona, kunduzi kabinet vazifasini bajaruvchi ota – ona yotoq xonasi, o'yin va qiziqishi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladigan bolalar yotoqxonasidan tashkil topgan yashash qismni ikki zonaga guruhlash maqsadga muvofiqdir:

a) kunduzgi paytda foydalaniladigan zona dahliz xolovli qo'shib qurilgan shkaf, sanitariya tuguni, mehmonxona, umumiy xona, kabinet, kvartira ichidagi zinapoya, oshxona, yozgi joy (hovli); b) oqshomgi paytda foydalaniladigan zona – xoll, yotoqxonalalar, kiyim almashtirish xonalar, umumiy foydalaniladigan ajratilgan sanitariya tuguni, yotoqxonalarning yoniga joylashgan, eni $1,2\text{m}$ bo'lgan lodjiya turidagi individual yozgi oldi ochiq xona (joy).


Mehmonxona – mehmonlar uchun mo'ljallangan xona, bu xona kvartira dahlizidan bevosita kirish eshigiga ega bo'ladi yoki unga umumiy hovlidan kiriladi. Mehmonxona "dubl" mehmonxona nomeri prinsipi bo'yicha o'zining qo'shib qurilgan shkaf bilan jihozlangan dahliziga ajratilgan sanitariya tuguni (xojatxona + vannaxona)ga va kamida ikkita uxlash joyiga ega bo'lgan yashash xonalaridan tashkil topadi. Mehmonxona orqali kvartiraning boshqa xonalariga o'tish ko'zda tutilmaydi.




Umumiy xona – bosh tantanavor, maydoni bo'yicha kvartiraning eng katta xonasi, bu xona bir tomondan xovli orqali dahliz bilan bevosita bog'lanishga va ikkinchi tomondan oshxona hamda yozgi joy (hovlicha) bilan bevosita bog'lanishga ega bo'ladi. Kattaroq maydonga ega bo'lish va bayram kunlarida foydalanish uchun qulaylik hosil qilish maqsadida umumiy xonani oshxona bilan yagona fazoviy kenglikka suriluvchan (yig'iladigan) pardevorlar orqali birlashtirishga yo'l qo'yiladi.

ОБЩАЯ КОМНАТА


Предметы обстановки




1. Размеры места для отдыха




2. Набор чайных столиков




3. Коробки для табачных изделий




4. Радиолы




5. Радиоприемники: малый и большой




6. Телевизоры: настольный и настольный
a - выступ телевизионной трубки (кин-
нескопа)




7. Проигрыватель, граммофонные
пластинки




8. Виолончель, гитара, футляр для
скрипки




9. Кабинетное пианино




10. Пианино




11. Рояль (обычный размером 1,4 x
x 1,4 м, концертный - шириной 1,57 м,
длина различная, макс. 1,62 x 3,5 м
(см. с. 19))




12. Детские стол и стулья




13. Шкаф для игрушек с выдвижными
ящиками




14. Детские ящики, убирающиеся один
в другой (размеры по Г. Шнеку)



15. Детская кроватка на колесиках



16. Ковры



17. Дорожки из линолеума или резины
шириной 100-200 см



18. Циновки

китайские
циновки-дорожки
шир. 69, 90, 115
и 138 см

китайские
циновки-
коврики
68x45
94x62
123x60
138x67
190x91

Ткани-покрывала
Декоративная ткань, ширина 130-150 см.
Ткань для тяжелых занавесей, ширина
120 см.
Ткань для гардин, ширина 140 см.
Тюль, ширина 150-550, иногда 800 см.
Льняная ткань, ширина 70-130 см.
Декоративный искусственный шелк, шири-
на 65 см.
Саржа, ширина 80-160 см.
Сукно, ширина 110 см.
Крепон, ширина 70-130 см.
Скатерти: 130 x 130, 130 x 160, 150 x 150,
150 x 180 см.
Покрывала для диванов: 150 x 300 см.
Расход тканей на стеганые и пуховые одея-
ла нормальных размеров 150 x 200 см:
8,4 м при ширине ткани 80 см; 6,3 м при
ширине 120-130 см; 4,2 м при ширине
160 см.

Technical drawing of a circular manhole. The main view shows a circle with diameter $\varnothing 90$ and height $h = 60$. Dimensions for the base and side are given: 25 for the base radius, 75 for the side radius, and 90 for the side height. A cross-section view shows the internal structure with a 25 wide opening and a 75 high side. The word "проход" (passage) is written below the drawing.

Функция	Необходимая мебель и оборудование	Наименование помещений
1. Отдых	Диван, низкий стол, удобные кресла	Гостиная
2. Чаепитие	Передвижной чайный столик, шкаф для посуды, места для сидения	Будуар
3. Беседа за рюмкой вина	Шкаф для рюмок, столик для приготовления напитков, погребец для ликеров	Бар
4. Курение	Курительный столик, шкаф для трубок, шкаф для табачных изделий и приборов	Курительная
5. Беседа	Место у камина, широкие и глубокие кресла, или диван, столик	Гостиная
6. Танцы	Свободная площадь с паркетным полом или линолеумом, 2,5—3,5 м ² на одну пару	Зал
7. Игры	Для детей низкие стулья, столы, шкафы для игрушек, коврик	Детская
8. Рукоделие	Рабочий стол, швейная машина, шкаф для белья, коробка для доскутов	Хозяйственное помещение
9. Завтрак	Место для завтрака в восточной части дома у террасы или между спальнями	Комната для завтрака
10. Обед	Обеденный стол со стульями, буфет	Столовая
11. Письменные занятия	Письменный стол, рабочее кресло, кресло для посетителей, шкаф для деловых бумаг, корзина для бумаг	Кабинет
12. Чтение	Книжные шкафы или полки, глубокие кресла с высокой спинкой.	Библиотека
13. Занятия музыкой	Рояль, пианино или др. инструмент, шкаф для струнных инструментов, нот и т. д.	Музыкальная комната
14. Спортивные игры и занятия	Стол для настольного тенниса, бильярд, боксерская груша и др.	Помещение для гимнастических упражнений

передвижной чайный столик


Technical drawing of a kitchen layout showing a sink, stove, and cabinets with dimensions. The drawing includes a sink unit with a width of 75 and a depth of 46. The stove unit has a width of 52 and a depth of 46. The cabinets have a width of 80 and a depth of 13. The overall width of the kitchen unit is 235. The drawing also shows a window with a width of 70 and a depth of 40.

швейн.
печка машинка 80х45


Technical drawing of a sewing machine table. The table is rectangular with a central opening for the sewing machine. Dimensions are given in centimeters: overall width 200, overall depth 100, central opening width 75, and central opening depth 80. The table has four legs, with the front legs being angled. The distance between the front legs is 180, and the distance between the back legs is 60. The height of the table is 225.

6. Место для отдыха и завтрака в общей комнате с диваном и удобными стульями. Удобная высота стула

СПАЛЬНЫЕ МЕСТА РАЗНОЙ ВЫСОТЫ



1. Спальный мешок на молнии с капюшоном (непрямоугольный) напихивает японскую постель с подставкой под голову



2. Походная кровать с натянутой парусиной в сложенном виде может служить сиденьем (для бомбоубежищ применяют также кровати размером 70 x 185 см).



3. Современная низкая кровать из стальных труб; стеганое или шерстяное одеяло, по возможности без клиновидной подушки




Типы спальных нос





4. «Бабушкина» пружинная кровать на высоких ножках: неудобна, вредна для здоровья, громоздка

Technical drawing of a rectangular sofa. The drawing shows a perspective view of the sofa with labels in Russian: "одеяло и простыни" (blanket and sheet) pointing to the top surface, "подушка" (cushion) pointing to the backrest and seat cushions, and "80" and "1.90" indicating dimensions. The sofa has a simple rectangular frame with a backrest and seat cushions.

6. Диван. На день постель убирают под откидную металлическую сетку




7. Диван с двумя подушками для сидения и спинкой из двух скошенных подушек, которые позволяют получить широкую постель (постельные принадлежности убирают в тумбу в головной части дивана)




8. Шведская двуспальная кровать с выдвижной рамой, на которой раскладывают подушки сидений и спинки


РАСПОЛОЖЕНИЕ КРОВАТЕЙ




у продольной стены



изголовьем к стене




на расстоянии от стены




свободно в центре комнаты


Для самочувствия спящего или отдыхающего человека большое значение имеет размещение кровати, которая может иметь различные варианты расположения в спальне: у продольной стены (рис. 1), изголовьем к стене (рис. 2), на некотором расстоянии от стены (рис. 3), свободно в центре комнаты (рис. 4).




в углу комнаты



в торце




в алькове




в нише шкафа


Уверенный в себе человек спокойно спит в центре комнаты (рис. 4), большинство людей любит спать у стены (рис. 1, 2), а некоторые в углу комнаты (рис. 5), в торце (рис. 6), в алькове (рис. 7) или в нише шкафа (рис. 8). Ощущение покоя зависит от отделки стен, формы кровати, ориентации по сторонам света (по возможности головой к северу), положения по отношению к источнику



для товарищей



для сестер




для братьев



для гостей


света (отвернувшись от окна) и к двери (дверь в поле зрения). Важное значение имеет расположение двух кроватей: для товарищей (рис. 9), для сестер (рис. 10), для братьев (рис. 11), для гостей (рис. 12). При установке кроватей вплотную друг к другу (рис. 11, 12) большое значение имеет также положение изголовья.




двуспальная кровать



две кровати рядом




две отдельные кровати




двухъярусное расположение

В расположении кроватей в спальне супругов имеются еще более тонкие различия, зависящие не только от условий планировки спальни, сколько от личных вкусов и привычек: двуспальная кровать (рис. 13), две кровати рядом (рис. 14), две отдельные кровати (рис. 15), двухъярусное расположение кроватей (рис. 16). При раздельной установке желательно ставить кровати изголовьями в раз-



кровать-шкаф



кровать с балдахинном



кровать с сенью




средневековая кровать


ные стороны (рис. 15, 16). В настоящее время все чаще применяется раздельная установка спальных мест супругов. Раньше супружеское ложе представляло собой пространственное сооружение: кровать-шкаф (рис. 17), кровать с балдахинном (рис. 18), кровать с сенью (рис. 19), средневековая кровать (рис. 20). Последнее ложе в форме базилики при задернутых занавесках освещалось потолочной люстрой. Последние четыре примера ясно показывают, как сильно зависит планировка и меблировка помещений от мироощущения.

Oshxona – funksional jihatdan ikkita zonaga ega bo'ladi: a) ovqat (taomlar) tayyorlash – ishchi b) kundalik ovqatlanish joyi– oshxona, bu zona umumiy xonaga suriluvchan (yig'iladigan) pardevor yordamida birlashtirilishi mumkin. Ishchi kuxnyaning eng kam maydoni 8m² bo'lib, uning 3 metrlik frontiga jihozlar

(sovutgich, ikki kamerali yuvish moslamasi, ish stoli, kir yuvish mashina – avtomat, gaz yoki elektr plita) joylashtiriladi. Kuxnya mahsulotlar va idishlarni saqlashga mo'ljallangan joyga (kladovkaga) ham ega bo'ladi.




7. Кухня с буфетной в большом многоквартирном доме с хорошей связью со входом, обеденными помещениями, с удобным наблюдением за главным и второстепенным входами. Шаг колонн 1,25 м (см. стр. 243, рис. 1). Архит. Нойферт




1. В квартирах для одиноких достаточно передвижной электроплиты, не требующей присоединения к дымоходу


2. Кухня-шкаф (фирма «Хааз и сын»)



4. Кухня с образцовой организацией рабочего процесса (архит. Рау и Шеффер)




каркасная стена с трубопроводами




5. Стандартная американская кухня. Все трубопроводы и встроенное оборудование для кухни и ванны на общей сборной перегородке




3. Минимальная кухня с вытяжной и приточной вентиляцией (архит. Нойферт). Перспектива и план




6. Американская кухня с выделенными местами для стирки, приготовления пищи и завтраков (непосредственная связь со столовой)




7. Шведская кухня с освещением вторым светом через столовую и вентиляционными каналами в стене




1. Разрез кухни, рассчитанной на работу 2 чел.



2. Разрез кухни в маленьком доме, рассчитанной на работу домашней хозяйки и временной помощницы




3. При низком размещении духового шкафа необходимо предусмотреть достаточно свободного места для работы. Над плитой следует предусмотреть вытяжку




4. Ширина рабочего стола 60 см, вспомогательного стола - 60 см




5. В кухне следует предусмотреть место для работы сидя. Лучше всего установить выдвижную доску под ящиком рабочего стола; сверху устраивается выдвижная доска для разделки продуктов




6. Передаточное окно из кухни, моечной или буфетной в столовую или к обеденному столу; над ним устроены полки для посуды, открытые устроены в обе стороны



7. Правильное и неправильное устройство искусственного освещения на кухне




8. Между буфетной и столовой удобнее всего применять качающиеся двери. Поскольку руки заняты, то дверь часто открывают ногой, поэтому ее обивают снизу металлом или пластиком




9. Нормальная высота раковины-слива и максимальная высота мойки; над ней полка для редко употребляемой посуды




10. Обычная высота рабочих столов 85 см является средней величиной между удобными высотами столов для разделки теста и мойки




11. Естественная вентиляция в кухне; система В лучше системы А




12. Принудительная вентиляция. Вентилятор установлен в наружной стене (А) или лучше в вытяжном колпаке над плитой (В)




13. При отсутствии специальной вытяжки воздух, насыщенный продуктами сгорания и паром, отводит по каналу к отверстию в наружной стене. Справа разрез




14. Кухня и помещение для домашних работ




14. Кухня и помещение для домашних работ




15. Кухня со встроенными шкафами для продуктов. Небольшая глубина ванной позволяет расширить коридор для устройства гардероба



16. Кухня с широким проемом для передачи блюд к столу



17. Кухня с обеденной нишей




18. Общая санитарная шахта между кухней и ванной. Сборная и умывальная требуют установки отдельного стока


Кухни и ванные, особенно в многоэтажных домах, должны иметь общую стену, в которой проходит скрытая проводка всех трубопроводов (газ, вода, электричество, канализация) со смотровыми дверцами.

Dahliz - xoll eni 1,6m bo'lib, qo'shib qurilgan shkaf bilan jihozlanadi, bu shkaf ustki kiyimlar va eni 0,6m bo'lgan poyafzal uchun qismlardan iborat bo'ladi, shkafning bo'yi 1 - 2 xonali kvartiralarda 0,8m, 3 - 4 xonali kvartiralarda 1,2m, 5 - 6 xonali kvartiralarda 1,6m va 7 - 8 xonali kvartiralarda esa 2,0m ni tashkil etadi.


1. Схема взаимосвязи помещений жилого дома




2. Прихожая расположена между комнатами дневного пребывания и спальнями, со входом в кухню и уборную (ванную)




3. Прихожая отделена от спальни; однако из спальни можно пройти в прихожую через кухню и ванную




4. Прихожая отделяет кухню от ванной; возможен проход в спальню через подсобные помещения




5. Ванная между спальнями; из кухни возможен проход в любое помещение дома




6. Открытая одномаршевая лестница требует большой площади коридора; применяется только в больших домах




7. Одномаршевая лестница в стенах между жилыми и подсобными помещениями занимает минимальную площадь




8. Ход в подвал из подсобного помещения по лестнице с забежными ступенями




9. Экономичная планировка первого и второго этажа с применением лестницы с забежными ступенями




10. При достаточной площади входной зоны и хозяйственного помещения целесообразно размещать одномаршевую лестницу у наружной стены




11. При недостаточной площади тамбур может быть частично вынесен наружу




12. Уборная размещается по возможности рядом с кухней, а входы в жилые помещения – в другой части передней




13. Размещение лестницы с забежными ступенями в углу дома является наиболее экономичным и не нарушает покой в жилых комнатах




14. При входе с лестницей в среднюю зону верхнего этажа достигается экономичная планировка здания



15. При такой планировке вход в подвал можно устроить также из средней зоны дома



16. При смещенных уровнях этажей применение удобных коротких лестничных маршей облегчает группировку помещений



17. В данном случае целесообразно устроить подвал под частью дома и расположить гараж на уровне земли (см. с. 188)

Qo'shib qurilgan shkaflar dahlizning eni qisqartirib qo'ymasligi lozim. Xollar umumiy xona bilan yig'ma (suriladigan) shisha pardevorlar bilan bog'lanishi tufayli kvartiradan turli funksiyalarni bajarish uchun "oqib o'tuvchan" fazoviy kenglikni tashkil qiladi. Kvartira ichidagi koridorlar va shlyuzlardan potolok balandligini qisqartiradi va bunda sof balandlik 2,2m ni tashkil etadi. Qo'shib qurilgan shkaflar va xo'jalik kladvokalari quyidagi o'lchamlarga ega bo'ladi: kiyimlar uchun shkaflning eni – 0,6m, idish – tovoqlar va kitoblar uchun 0,3m, xo'jalik va mavsumiy buyumlar (narsalar) uchun 0,8m da bo'lishi taqozo etiladi. Kvartira ichidagi zinapoyalarning eni 0,9m dan kam bo'lmasligi va eng katta og'maligi 1:1,5 nisbatda bo'lishi, maydonchalarning eni 1,2m dan kam bo'lmasligi taqozo etiladi. Umumiy xona yoki xollda radiusli zinapoyalarga yo'l qo'yiladi, lekin bunda ular oraliq maydonchalarsiz quriladi va zinaning eni bir – biridan farq qiladi, zinaning og'maligi o'zgaruvchan bo'ladi.

Muallifning asosiy g'oyasi – arxitektura yodgorligi sifatidagi foydalanish muddati 125 yildan kam bo'lmagan oliy arxitektura san'ati obyektini yaratishda qo'llanadigan qurilish – montaj ishlari uchun qabul qilingan konstruktiv sxema va metodlarga bog'liq bo'ladi.

7 – 8 – 9 balli seysmiklikdagi 12 – balli shkala bo'yicha o'quv maqsadlarida quyidagilar tavsiya etiladi: poydevorlar – quyma temirbeton va yig'ma beton bloklardan; devorlar – mahalliy qurilish materiallari (g'isht, shlakoblok)dan yashirin temirbeton karkas va temirbeton quyma belbog'larning oraliq tom yopmalari balandligida bajariladi. Toshkentning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda devorning qalinligi 38sm (1,5 g'isht)ni tashkil etadi. Tom yopilmasi va oraliq tom yopilmalari – qalinligi 22sm bo'lgan ko'p teshikli temirbeton plitalardan bajariladi, bunda 3 – 7,2m bo'lgan oraliqni yopish mumkin bo'ladi; antiseysmik konstruktiv tadbirlar devorlarning rejadagi o'qlarining – “qaychi” ko'rinishida siljishiga yo'l qo'ymaslikni taqozo etadi; antiseysmik tadbirlarning talablariga rioya qilish majburiydir!; zinapoyalar – temirbeton elementlardan tashkil topadi; tom – og'ma cherdakli bo'lib, metall sitronilali tashqi suv oqishning tashkil etilishi bilan shamollanadigan fazoga ega bo'ladi, bunda cherdak yopilmasi turli rangdagi listli metall cherepisalardan bajariladi. Yassi tomdan hovli sifatida foydalanish maqsadida mansardli qavatni qurishga yo'l qo'yiladi: fasadlarning tashqi pardozlanishi rangli yuqori sifatli materiallardan ishlanib, uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi taqozo etiladi.

1 – jadval. Komfort tipli Kam qavatli turar-joy binosining bir kishiga 25 – 30m² yuza to'g'ri kelishidan kelib chiqqan holdagi tarkibi va yuzasi (maydoni).

Xonalar tarkibi		Turar joy xonalarining yuzalari, M ²				
		3 xonali	4 xonali	5 xonali	6 xonali	7 xonali
A. Yashash xonalari						
1.	Umumiy xona	22 M ²	24 M ²	26 M ²	28 M ²	30 M ²
2.	Mexmonxona	20 M ²	22 M ²	24 M ²	26 M ²	28 M ²
3.	Ota onalar uchunyotoqxona	18 M ²	18 M ²	18 M ²	18 M ²	18 M ²
4.	Yotoqxona bir kishi uchun	-	12 M ²	12 M ²	12 M ²	12x2 M ²
5.	Yotoqxona ikkkishi uchun	-	-	14 M ²	14 M ²	14 M ²
6.	Bolalar xonasi	-	-	-	16 M ²	16 M ²
Yashash maydoni:		60 M ²	76 M ²	94 M ²	114 M ²	130 M ²
B. Yordamchi xonalar						
7.	PR + XL + KR	10 M ²	12 M ²	15 M ²	18 M ²	20 M ²
8.	KX + ST (oshxona)	12 M ²	12 M ²	14 M ²	14 M ²	12 M ²
9.	S/U (sanitar tugun)	5 M ²	6 M ²	8 M ²	10 M ²	12 M ²
10.	SN + BS	-	15 M ²	20 M ²	25 M ²	30 M ²
11.	KL + VSh	3 M ²	5 M ²	7 M ²	10 M ²	12 M ²
Yordamchi maydon:		30 M ²	50 M ²	64 M ²	77 M ²	90 M ²
Umumiy maydon:		90 M ²	126 M ²	158 M ²	191 M ²	220 M ²

Izoh: A) Shartli belgilar: OK (ux) – umumiy xona, MX – mehmonxona mehmonlar uchun xona, mehmonxona nomeri sifatida loyihalanadi, ikkita joy va

qo'shimcha bolalar krovatining qo'yilishi hisobga olinadi, lokalli ajratilgan sanitar tugunlar, balkon yoki lodjiya tipidagi yozgi xona bo'lishi hisobga olinadi. SPR – ota – ona yotoq xonasi; SPR – bir kishi uchun yotoqxona; SP – 2 – ikki kishi uchun yotoqxona; D/I – bolalar uchun o'yin xona; PR + XL + KR – dahliz + xoll + koridor; KX + ST – oshxona, har kuni (kundalik) foydalanish uchun; SU – ajratilgan sanitar tugunlari; SN + BS – sauna + basseyn; KL + VSh – xo'jalik kladvokasi + qo'shib qurilgan shkaflar.

B) Qavatining balandligi – 3,3m, yozgi xonalarining balandligi – 4,95m kam bo'lmasligi lozim.

4. Mashina turish joyi va garaj.

Mashinalar uchun ajratilgan ochiq tashqaridagi joy 4 – 6 avtomashina uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak. Yopiq mashina turar joyi–garajning maydoni 1 m/m = 24 m² bo'lib, ikkita mashina uchun mo'ljallanadi (mashinalarning kirishi va chiqishini hisobga olgan holda).

5. Texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar.

a) Yashash maydoni; b) Umumiy maydon; v) Yozgi (isitilmaydigan) xonalar maydoni; g) qurilish hajmi.

6. Bosqich loyiha – ishi tarkibi.

- uchastkaning bosh rejasi – 1:500, 1:250 (masshtabda);
- fasadlar (ikkita) – M1:150; 1 – qavat va takrorlanmaydigan qavatlarining rejasi, M1:100; - zinapoya kletkasi bo'yicha ko'ndalang kesim, M1:100, 1:150; - perspektiva (aksonometriya) yoki maket.

7. Ishning bajarish grafikasi.

Bosqich, diplom oldi loyihasining bajarish muddati – 10 hafta.

1 – reyting – A – 3 qog'ozga qo'lda qalam bilan klauzurani bajarish – 4 hafta yakunida.

2 – reyting – 8 – hafta oxirida 0,8x0,8m o'lchamdagi bitta ramka ostida 0,55x0,75m o'lchamdagi ikkita ramka ostida (planshetlarda) qalam orqali bajarilgan loyihani baholash.

3 – reyting – qo'l bilan qalamda to'liq bajarilgan loyihani baholash (tush, akvarel, guash, tempera) – 11 – haftaning boshida.

Loyiha ishini bajarish uchun me'yorlar.

I mintaqa - saxro iqlimi ta'sirida bo'lgan o'ta noqulay yozgi sharoitli hududlar.

I mintaqada ayniqsa jazirama davrli IA va IB ostmintaqalar, havosi yuqori darajada changli IA, IB, IG ostmintaqalarga ajratilgan, IG ostmintaqqa sovuq qishi bilan ajralib turadi.

II mintaqa – tog'oldi vohalar, tabiiy – iqlimiy va landshaft sharoitlari nisbatan yaxshi bo'lgan vodiylar va yassi tog'li tumanlar.

III mintaqa – tog'li hududlar – o'ta noqulay qishgi qishgi sharoitlari bilan ajralib turadi.

I qurilish – iqlimiy mintaqada turar –joy binolarining arxitektura tarixiy yechimlari istiqomatgohini yozgi jazirama, shamol va changdan himoyalashni ta'minlashi kerak.

Yashash xonalarini chang – to'zon ta'siridan himoyalangan hovli bo'shliqlariga ochilishini ta'minlaydigan, maksimal keng korpusli turar – joy uylarning ihcham qurshalgan (o'ralgan) yoki yarim qurshalgan (o'ralgan) kompozision – tarxiy yechimlarini qo'llash tavsiya qilinadi.

II qurilish – iqlimiy mintaqada arxitektura –tarxiy yechimlar iqlimning orombaxsh sharoitlaridan maksimal foydalanishga, shu bilan bir vaqtda istiqomatgohni ortiqcha jaziramadan himoyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Jaziramadan himoyalash soyabonlash, istiqomatgohni tashqi ko'kalamzor muhitga ochish, orombaxsh salqin shamollar yo'nalishini hisobga olgan holda shamollatish hisobiga ta'minlaydi.

III qurilish – iqlimiy mintaqada arxitektura – tarxiy yechimini tanlashda yetakchi omil, bu istiqomatgohni qish davrida o'ta noqulay iqlim tasiridan himoyalashdir. Istiqomatgoh va peshayvonlar asosan janubiy (janubi – sharq, janubi - g'arb) ufqqa qaratilgan, ihcham kompozision – tarxiy yechimlar qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yashash xonalari va osh xonalarni polidan shipgacha balandligini: I – II mintaq sharoitida kamida 2,8m qabul qilish lozim (yaxshilangan va yuqori qulaylikli turar joyda esa, kamida 3m tavsiya qilinadi); III zona uchun 2,7 m balandlikka yo'l qo'yiladi.

Yashash xonalarini yerto'la va sokl qavatlarida joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yashash xonalari, oshxonalar, oqovalashtirilmagan hojatxonalar, zinapoya bo'lmalari (xonadon ichidagidan tashqari), yo'lakli tipidagi binolarda umumiy yo'laklar, vestibyullar, hamda bino ichidagi jamoat xonalari tabiiy yoritilgan bo'lishi kerak. Tabiiy yoritishni KMK 2.01.05 ga muvofiq bo'lishi kerak.

Bu holda yorug'lik proyomlari maydonini yashash xonalari va oshxona pollari maydoniga nisbati, qoida tarzida, 1:5,5 dan ko'p bo'lmasligi, minimal nisbati I va III mintaqalarda 1:10 dan va kam bo'lmasligi kerak; mansard qavatlarida yuqorida ko'rsatilgan nisbat hamma mintaqalarda 1:10 qilib qabul qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Yo'lakli tipidagi binolar umumiy yo'laklar derazasini yuzasi pol yuzasining 1/16 qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Tabiiy yoritilgan xonala, farmuga, darcha (fortochka) yoki boshqa qurilmalar orqali shamollatilishi ta'minlanishi kerak.

Turar – joy binolarini tarxlanishi (planirovkasi) joylashishi va ufqqa nisbatan o'rni yashash xonalarini 22 mart – 2 sentyabr davrida uzliksiz davom etiadigan insolyasiyasi 2,5 soatdan kam bo'lmasligini ta'minlashi kerak; kun davomida insolyasiyasinin umumiy vaqti 0,5 soatdan oshganda yashash xonalarini insolyasiyasi bir marta uzilishiga yo'l qo'yiladi.

Bir, ikki, va uch xonali xonadonlarda kamida bir xonada; to'rt, besh, olti xonaliklarda kamida ikki xonada insolyasiyan normalangan davomlilikiga ta'minlashi kerak.

Yotoqxonalarda qoida tarzida yashash xonalarining kamida 60%, internat – uylar esa kamida 75% insolyasiya qilinishi kerak.

Turar – joy uylar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- bir oilali (birkvartirali), yer uchastkalarida alohida turuvchi;
- juftlangan, 2 va undan ko'p kvartirali, har biridan kvartira qoshidagi yer uchastkasiga bevosita chiqiladi;

Kam qavatli xususiy bir xonadonli uylar, yashash va xo'jalik xonalar bloklarini kichik ochiq hovli atrofida joylashtirib loyihalashtirish mumkin; xonalararo ochiq yarim ochiq bog'lovlar (bostirma, galereya (yo'lak)) qo'llashga yo'l qo'yiladi.

Turar – joy uining tarxiy tuzilishini, juftlab (yopishtirib) yoki ustiga yashash va yordamchi xonalar qurish hisobiga o'zgartirishga yo'l qo'yiladi; bu holda zilzila va yong'in havfsizligi talabalari, sanitariya – gigiyena normalari hisobga olinishi; qo'shni turar – joy uyning insolyasiya rejimi yomonlashmasligi kerak.

Kvartirada yashash xonalari, oshxona, daxliz xojatxona, vanna yoki dush bo'lmasi, devor ichiga qurilgan shkaflar, yozgi xonalar (ayvonlar) ko'zda tutilishi kerak.

Davlat yoki mahalliy byudjet hisobiga quriladigan ijtimoiy (“munisipal”) turar – joy fondiga qarashli oddiy (me'yoriy) klass qulaylikli kvartira maydonini 1 jadval va 7 tavsiyaviy (1 jadval) ilova ko'rsatgichlarini hisobga olgan holda qabul qilinadi.

1 jadval.

Kvartiralar turi	Oila tarkibi	Kam qavatli turar-joy binosining maydoni (yozgi xonalarsiz), m ²	Shu jumladan yashash maydoni m ²
1-xonali	1	28-30	14-16
1-xonali	2	32-36	18-20
2-xonali	3	48	30
3-xonali	4	64	40
4-xonali	5	80	53
5-xonali	6	96	66
6-xonali	7(8)	114	78

1 odam uchun kvartirada xonani maydoni 14m² dan, 2 odam uchun 18m² dan kam bo'lmasligi kerak.

2-3 xonali kvartiralarda umumiy xonaning maydoni 16m² dan kam bo'lmasligi kerak.

Yotoqxona yashash xonasi maydoni 2 kishi uchun 12m² dan kam bo'lmasligi kerak, ota-onalar yotoqxonasi uchun 13-14m² tavsiya qilinadi. 1 kishilik yotoqxona xonasi 8m² dan kamm bo'lmasligi kerak, qayta – tiklash (rekonstruksiya sharoitida joylashtirilganda esa 7m² yo'l qo'yiladi kvartirada boshqa yashash xonalari mavjud bo'lgan holda).

Kvartiralarning barcha turlarida yotoqxona va alvoklar orqali boshqa

xonalarga o'tiladigan bo'lmasligi kerak.

Oshxona mayoni, qoida tarzida 8m^2 dan kam bo'lmasligi kerak.

Qayta tiklash sharoitida 1 xonali kvartiralar uchun oshxonalar va taxmonsimon oshxonalarni 5m^2 qilib loyihalash mumkin.

1 qurilish – iqlimiy zona sharoitida 1 kishiga yotoqxona yashash xonasi $9-10\text{m}^2$ bo'lishi, 2 kishiga esa 14m^2 dan kam bo'lmasligi, 1 xonali kvartirada yashash xonasi $16-18\text{m}^2$, bo'lishi kerak.

Fuqarolar yoki tashkilotlar shaxsiy mablag'lari hisobiga quriladigan, nodavlat turar – joy fondining turar – joy uylari, oddiy, yaxshilangan va yuqori qulaylikli kvartiralarini o'z ichiga olishi mumkin. Yaxshilangan qulaylikli kvartiralar 1 yashovchiga umumiy maydon 23m^2 dan kam bo'lmasligi, yuqori qulayliklisida esa 1 kishiga 30m^2 dan kam bo'lmasligi va oilani har bir a'zosiga aohida xona bo'lishini ta'minlashi hisobiga olgan holda loyihalashtiriladi.

Oshxonani eni jixozlar ir tomonda joylashganda 1,7m dan; ikki tomonida joylashganda 2,2 m dan; daxlizni eni qoid tarzida 1,4 m dan, kvartira ichi yo'laklari, yashash xonalariga olib boruvchi – 1,1 m dan, yordamchi xonalarga olib boruvchi – 0,9 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Yozgi xonalar – ayvonlar, balkon, lodjiyalar, qavatlarida kvartiralarga yondosh xovlilar loyihalash topshirig'ida ko'zda tutiladi.

Oynavand yozgi xonalar maydoni birxonali kvartira uchun 5m^2 dan eni 1,4m; uchxonalikda 10m^2 dan kam bo'lmasligi kerak.

Kvartiralarning sanitariya gigiyena xonalari ushbu me'yorlarni 9.6 b bo'yicha sanitariya – gigiyena asbob – uskunolari bilan jixozlanganlik talabalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilishi kerak.

Hojatxonalar qo'lyuvgichlari bilan loyihalanib, eni, odatda 1,6 m dan, birlashtirilgani esa – 2,2 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Turar – joy hovli – maishiy va xo'jalik maqsadlarida faol foydalaniladigan, uyga tutashgan ochiq bo'shliq.

Yozgi xona – yilning issiq (iliq) davrida, dam olish va xo'jalik - maishiy maqsadda foydalanish uchun mo'ljallangan ochiq (yarim ochiq) yoki oynavand istilmaydigan xona; yozgi xonalarning quyidagi turlari bo'ladi: ravon ayvon (veranda), peshayvon (lodjiy), terassa, osma ayvon (balkon), va yopilgan hovlilar, shu jumladan:

Peshayvon (lodjiya) – bino hajmiga kiritilgan, uch tomoni devor, oldi ochiq yoki oynavand yozi xona;

Ravon ayvon (veranda) – binoga yopishtirib qurilgan oynavand yozgi xona;

Terassa – binoga ochiq yoki yopilgan dam olish uchun maydonga – hovli, shu jumladan quyi qavatini tomida joylashishi ham mumkin;

Tekislangan yer satxi – bino atrofidagi loyiha bo'yicha tekislangan yer sathi.

Yerto'la (pogreb) – oziq – ovqat maxsulotlarni saqlash uchun yerga chuqurlashtirilgan xo'jalik inshooti; uy ostida yoki aloxida joylashishi mumkin.

Tambur – sovuq havo, tutun, hidlar kirishidan himoyalaylovchi eshiklar orasidagi o'tiladigan bo'shliq; binoga, xonaga, zina bo'lmasiga kirishda o'rnatiladi.

Sovuq ombor – uyining isitilmaydigan hajmida joylashgan ombor.

Mansard qavati (mansardda) – sordoq bo'shlig'ida joylashtiriladigan

yashaladigan qavat.

Yer usti qavati – xonalar polini sathi, tekislangan yer satxidan baland bo'lgan qavat.

Sokol qavati – xonalarpolini satxi, tekislangan yer staxidan pastligi xona balandligini yarmidan ko'p bo'lmagan qavat va qavat yopmasini sathi yerdan balandligi kamida 2m.

Yerto'la (podval) qavat – xonalar polini sathi tekislangan yer sathidan pastligi xona balandligini yarmidan ko'p bo'lgan qavat.

Turar – joy binoni maydonini, tashqi devorni ichki yuzalari oralig'idan o'lchangan hamma qavatlar maydoni, hamda yozgi xonalar (peshayvon, osma ayvon) maydonlari yig'indisi deb hisoblash kerak.

Turar – joy binolar xonalarining maydonini, pol sathida (plintuslar hisobisiz) devor va poydevorlarning pardozlangan yuzalari orasidagi o'lchamlari bo'yicha hisoblash kerak.

Pechka va pechka – kamin egallagan maydon xona maydoniga kiritilmaydi.

Kvartira ichidagi zina osti maydoni poldan chiqib turgan konstruksiya ostigacha bo'lgan balandligi 1,6m va undan ortiq bo'lsa, o'sha zina joylashgan xona yuzasiga kiritiladi.


Mansard qavatdagi xonani maydonini hisoblashda, qiya shipli shu xonaning balandligi 1,6m dan kam bo'lmagan qismini maydoni hisobga olinadi.

Kurs loyihasini bajarishda sanitar tarmoqlari, zinapoyalar birinchi ilova bo'yicha ko'rsatilgan.


Ikkinchi ilovada kurs loyihani bajarishda xonalar tarkibi va ularni o'zaro bog'liqliklarini hamda arxitekturaviy yechimlari bo'yicha takliflar keltirilgan.

Ilova 1

Santexnik jihozlari. a-vanna xonadagi sanitar jihozlarini umumiy ko'rinishi; b-to'g'ri bo'rtli kichik vanna uzunligi 1500 mm; v-dush paddoni; g-fayans umivalnigi: fayans unitazi. Tepaga joylashgan bachogi bilan.




Hojatxonalarni o'lchamlari va joylashuvi




A-xojatxona; b-xojatxona qo'l yuvadigan joyi bilan, v-vanna umivalnigi bilan, g-vanna umivalnigi bilan, kir yuvadigan mashina, kir taxlaydigan shkafi bilan; d-xojatxonasi obrezxona bilan.


Xonadon ichidagi zinapoyalarni va ularning o'lchamlari



Xonadon ichidagi zinalarning taxminiy joylashuvi






А- уч хоналихонадон, Б- тўрт хонали хонадон, В- беш хонали хонадон, а- биринчи кават, б- иккинчи кават



Turar joy binosi tarkibida kichik mexmonxonasi bilan. 1-tambur;
 2-xoll; 3-umumiy xona; 4-yotoqxona; 5-kabinet; 6-oshxona yemakxonasi bilan; 7-
 kir yuvish xonasi; 8-obrezxona; 9-xoll; 10-ayvon; 11-balkon; 12-vestibyul; 13-
 tamaddi xona; 14-oshxona; 15-omborxona; 16-idish-tovoq yuvish xona; 17-
 qaznoqxona; 18-mehmonxona; 19-ikki kishi uchun xona; 20-bir kishiga
 mo'ljallangan xona; 21-chekish xona; 22-dush xona; 23- xojatxona; 24-yordamchi
 xona; 25-kir yuvish xona; 26-peshayvon; 27-qozon xona; 28-yoritgichlar taxtasi
 xona; 29-oziq-ovqat maxsulotlarini saqlash xonasi.


Xar hil sathli 5-xonali turar joy xonadon. Arxitektor D. Radigin






Shifokor turar joy uyi. Arxitektor D.Radıgin. Umumiy ko'rinish, qavatlar tarxi 1-xoll; 2-umumiy xona; 3-yotoqxona; 4-xona; 5-oshxona yemakxonasi bilan; 6-xojatxona; 7-obrezxona; 8-ayvon; 9-qabul xona; 10-shifokor xonasi; 11-davolash tashxis xona; 12- xojatxona; 13-garaj.

Ikki qavatli ikki xonadonli bloklashtirilgan turar joyi




Talaba Vasilevskaya T. (TAQI)



Tomorqali turar joy uylari.

A- bir xonadonli tomorqali turar joy uyi, xo'jalik xonalari bilan. Arxitektor Saxarova R. 1983 yil: 1- xo'jalik xonalari; 2- goraj; 3- ayvon;
 B- tomorqali turar joy uyi; V- krest tipli tomorqali turar joy uyi; G- ikki satxga joylashgan ikki xoadonli tomorqali uy. Arxitektor V.P.Nikiforov, M.A.Kasner.



Mansord tipidagi to'rt xonali turar joy uyi garaji bilan. Arxitektor I.N.Shishkov.

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Annette Gigon. Apartment Buildings new concepts., The stainless steel Cat 2005y. 360p.
2. Quentin Pickard. The Architects Handbook. Blackwell Publish.: London., 2002y 454p.
3. Убайдуллаев Х.М, Иногимова М.М “Турар жой ва жамоат биноларини лойихалашнинг типологик асослари, Дарслик. – Тошкент.: Ворис”, 2009. – 300 бет.
4. Убайдуллаев Х.М, Хидоятлов Т.А, Абдурахманов Й.И, Г.И.Коробовцев, Мансуров Я.М. Архитектураларнинг лойихалаш Ўқув қўлланма, Тошкент.: “Архитектура инновацион маркази”, 2012 – 180 бет.
5. Иногимов Б.И, Замонавий бино ва иншоотларнинг лойихалаш Ўқув қўлланма, Тошкент.: “Архитектура инновацион маркази”, 2010 – 187 бет.
6. С.А. Қодирова Жамоат биноларини лойихалаш, Ўқув қўлланма, Тошкент.: “Архитектура инновацион маркази”, 2015 – 140 бет.
7. М.Т. Абдужабборов, Турар жой биноларини лойихалаш. Ўқув қўлланма, Тошкент.: “Архитектура инновацион маркази”, 2015 – 154 бет.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. I.A.Karimov Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagimiz yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. O'zbekiston, Toshkent 2005
2. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. O'zbekiston, Toshkent 2005
3. Народ, который дышит воздухом свободы, никогда не сведёт со своего пути Ўзбекистон, Тошкент 2016
4. Маракаев Р.Ю., Юсупов Р.Д., Убайдуллаев Х.М., Шайданова Л.Р. “Пространственные конструкции покрытий зданий и сооружений”
5. Нойферт.П., «Строительное проектирование», Справочник, М., «Архитектура-С», 2010 г.
6. Нойферт.П., «Проектирование и строительство», Справочник, М., «Архитектура-С», 2005г.
7. Annette Gigon. Apartment Buildings new concepts., The stainless steel Cat 2005y. 360p.
8. Simone K Schleifer. Architectures de demain projets.: Editions place des victoires. 2011 y. 600p

9. Gunter Pfeifer end Per Brauneck. Residential Buildings A typologiy Basel.: 2015y. 151p.
10. Philip Jodidio. Descubrir la Arquitectura. Lunwerk editir.: 2013y. 260p
11. Zaha Hadid. The Complete Buildings and projects. Essay by Aaron Betsky with 448 illustration, 328 in colour/ Thames and Hudson.

Normativ xujjatlar

1. ШНК 2.08.01-05 “Тураp жой бинолари”
2. ШНК 2.08.02-09 “Жамоат бинолари ва иншоотлари”
3. ШНК 2.01.02-04 “Бинолари ва иншоотларнинг ёнгин хавфсизлиги”
4. КМК 2.01.03-96 “Зилзилавий хуудларда курилиш”
5. КМК 2.08.04-04 “Маъмурий бинолар”

Internet saytlari

1. www.a-len.ru
2. www.stroyka.uz
3. www.proekts.ru
4. www.5ballow.qip.ru
5. www.bestreferat.ru
6. www.archrecord.construction.com
7. www.greensource.construction.com